



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 5 - avgust

VI-64-153-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Angor tumanida korxonalar va tashkilotlarda xodimlar bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish, ularga ish haqi hisoblash, ish haqidagi soliqlar va ijtimoiy to'lovlar to'lanishiga amaliy yordam ko'rsatish hamda mavjud ish o'rinlarini legallashtirishga ko'maklashish maqsadida tuman Kengashi huzurida ishchi-guruhni tuzish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2022-yil 7-iyun kuni "Xizmatlar sohasini rivojlantirish" masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Angor tumani hududida norasmiy ishlayotgan shaxslarni aniqlash va mavjud ish o'rinlarini legallashtirish hamda uni vujudga keltiruvchi va ko'lamini kengaytiruvchi asosiy omillarni oldini olish bo'yicha tuman hududidagi tegishli davlat organlari va tashkilotlarining mas'ul xodimlaridan iborat ishchi-guruh ilovaga muvofiq tashkil etilsin.

2. Ishchi-guruhning asosiy vazifasi etib, tumanda norasmiy ishlayotgan shaxslarni aniqlash va mavjud ish o'rinlarini legallashtirish hamda natijada budjetga qo'shimcha mablag' jalb etilishi barobarida ishchi-xodimlarning kelgusidagi kafolatlangan pensiyasini olishini ta'minlanishi yuzasidan targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish belgilansin.

3. Ishchi-guruh tomonidan targ'ibot tadbirlarini o'tkazish davomida tadbirkorlik subyektlarida qonunbuzilishi holatlari aniqlangan taqdirda, mazkur qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish yuzasidan tegishli tushuntirish ishlarini olib borsin hamda tegishli javobgarlikka tortilishi mumkinligi to'g'risida ogohlantirsin.

4. Ishchi-guruh tomonidan tadbirkorlik subyektlarida targ'ibot tadbirlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining "Xususiy mulkni himoya qilish va

mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqlariga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilsin.

5. Ishchi guruhga jalb etilgan davlat organlari va tashkilotlarining xodimlarini ishchi-guruhga o‘z vaqtida yetib kelishini tegishli davlat organlari va tashkilotlarining rahbarlari ta’minlasin.

6. Ishchi-guruh tomonidan har oyning 5-sanasiga amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida kunlik ma’lumotlarni tuman Kengashiga kiritib borilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Kabulova) hamda Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Sadatov) zimmalariga yuklansin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov

Xalq deputatlari Angor tuman
Kengashining
2023-yil 5-avgustdagi
VI-64-153-8-109-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Angor tumanida korxonalar va tashkilotlarda xodimlar bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish, ularga ish haqi hisoblash, ish haqidagi soliqlar va ijtimoiy to'lovlar to'lanishiga amaliy yordam ko'rsatish hamda mavjud ish o'rinlarini legallashtirishga ko'maklashuvchi ishchi guruhi

TARKIBI

| № | F.I.Sh | | Ish joyi, lavozimi |
|----------|-----------------|---|---|
| 1 | R.Qobulova | - | Tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi |
| 2 | M.Sadatov | - | Tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi |
| 3 | M.Yarmatov | - | Tuman Kengashi kotibiyati mudiri |
| 4 | Lavozimga ko'ra | - | Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi |
| 5 | Lavozimga ko'ra | - | Tuman Davlat soliq inspeksiyasi |
| 6 | Lavozimga ko'ra | - | Tuman Qurilish va uy-joy kommunal bo'limi |
| 7 | Lavozimga ko'ra | - | Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi |
| 8 | Lavozimga ko'ra | - | Tuman Investitsiya va tashqi savdo bo'limi |
| 9 | Lavozimga ko'ra | - | Tuman hokimligi axborot xizmati |
| 10 | Lavozimga ko'ra | - | Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi tumani Kengashi |
| 11 | Lavozimga ko'ra | - | Tuman Nodavlat notijorat tashkilotlari |

Izox: Ishchi guruh tarkibiga jalb etilgan xodimlar tegishli davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari tomonidan o'zgartirilishi mumkin.

Ishchi guruh tarkibiga davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari bilan birgalikda ushbu tashkilot xodimlari ro'yxat asosida jalb etiladi.